

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



ADABIYOTSHUNOSLIK TARIXI  
FANINING

(*Magistratura 1-kurs talabalari uchun*)

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230000 - Gumanitar fanlar

Mutaxassislik: 70230104 - Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

<b>Fan/modul kodi</b>	<b>O'quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS – Kreditlar</b>			
AT 104	2024-205	1	4			
<b>Fan/modul turi</b>	<b>Ta'lim tili</b>					
Majburiy	O'zbek					
<b>1 Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lif (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>			
Adabiyotshunoslik tarixi	60	60	120			
<b>2. I. Fanning mazmuni</b>	<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – magistr talabalarni adabiyotshunoslik tarixining nazariy muammolarini o'rGANISH, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektida o'rGANISH va uning madaniy va ma'nnaviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va adabiy namunalarni tarixiy-nazariy aspektida o'rGANISH orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tufakkurini kengaytirish nazarda tutilgan.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – adabiyotshunoslik tarixining vazifalarini aniqlash va uni adabiy-badiiy jarayonning tarixiy xususiyatlarni o'rGANISHGA qaratish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- milliy adabiyot tarixining nazariy munsululari bilan talabalarni tanishtirish va ulardan muhim xulosalar chiqara bilish;</li> <li>- tarixiy, adabiy va ilmiy asarlarning jumiyut, millat va shaxs rivojidagi rolini baholay olish.</li> </ul>					
<b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>						
<b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>						
<b>I-mavzu. «ADABIYOTSHUNOSLIK TARIXI» FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI</b>						
<p>Adabiyotshunoslik tarixi tushunchasi. Adabiyotshunoslik tarixi fanining predmeti. Adabiyotshunoslik tarixi fanining vazifalari. Qadimgi davr adabiyotshunosligning o'ziga xos xususiyatlari. Mumtoz adabiyotshunosligning asosan she'rshunoslik shaklida taraqqiy qilganligi. Mumtoz adabiyotshunoslidka adabiy-nazariy fikrlar taraqqiyoti. Badiiy asarlar matni ichidagi adabiy-nazariy fikrlar. Adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan maxsus asarlar. Sharq she'rshunosligi.</p>						
<b>2-mavzu. QADIMGI DAVR (MISR, SHUMER, XITOY, IIINDISTON) SHARQ ADABIYOTSHUNOSLIGI</b>						
<p>Qadimgi Misrda adabiyotshunosligning ilk manbalari. Shumer va Bobilda adabiy-nazariy qarashlar. Adabiy ta'lif o'choqlari. Qadimgi Xitoyda «adabiyot» tushunchasining talqini. Hindistonda Sanskrit poetikasi. She'riyat haqidagi qarashlar. Qadimgi Misr adabiyotshunosligi manbalari. So'z san'atining ildizlari va ilk adabiy-</p>						

nazariy qarashlarni kuzatganda, adabiyot ayrim san'at turlaridan, xususan, rasm yoki raqs v.b.dan keyinroq vujudga kelgan, degan qarashlar mavjud. Qadimshunos olim Ye.M.Meletinskiy shunday yozadi: "So'z san'ati, kuzatilishicha, boshqa san'at turlaridan nisbatan kechroq vujudga kelgan, chunki uning materiali, birlamchi unsuri so'z va nutqdir.

### **3-mavzu. SHUMER VA BOBILDA ADABIYOTSHUNOSLIK**

Eng qadimgi arabiylar, turkiylar, suryoniy, xattiy, qibtiy xalqlarning vatani bo'lmish ikki daryo oralig'i - Mesopotamiyada ilk davlat, siyosat, madaniyat, jumladan, adabiyot, san'at vujudga kelgani va rivoj topgani haqida tashbitiklarda yozib qoldirilgan. Yunonlar «Mesopotamiya» deb atagan hudud - ikki daryo oralig'i deb tarjima etilsa-da, nafaqat Yevfrat (Frot) va Tigr (Dajla) daryolari oralig'i, balki bu ikki daryoning har ikki sohilidagi vodiylari va vohalar nazarda tutildi. Kichik Osiyoning sharqiy chegaralari qadimgi Van ko'li (Armanistondagi Sevan ko'lining ja-nubrog'ida) o'rtaida, Kurdiston tog'laridan boshlangan Tigr (Dajla) daryosi 1950 kilometr (taxminan Qashg'ardan Ozarboyjon-gacha) yo'l bosib, janubda undan ham olisroq (2770 km) yo'l bosgan Yevfrat (Frot) daryosi bilan qo'shilib, Shattl-Arab daryosini hosil qiladi va Basra shahridan pastroqda Hind okeanining Fors ko'r-faziga quyiladi. Mana shu hudud shimoli Assiriya, janubi esa Vaviloniya (Bobil) deb yuritilgan. Bobilning shimol qismi o'z navbatida Akkad, janub qismi esa Shumer deb yuritilgan. Injil rivoyatlariga ko'ra, "jannat - ikki daryo oralig'i" deb tasavvur qilingan, Odam Ato va Momo Havo shu yerda yashagani bayon qilingan.

### **4-mavzu. XITOYDA ADABIYOTSHUNOSLIGI MANBALARI**

#### **XITOYDA ADABIY-ESTETIK TAFAKKUR. «ADABIYOT»**

#### **TUSHUNCHASI XITOYLIKLER NAZDIDA**

«Adabiyot» tushunchasi xitoyliklar nazdida. Adabiyot garchi yakka shaxslar tomonidan alohida-alohida asarlar shaklida yaratil-gani bilan u ijtimoiy hodisadir. Sababi davrlar o'zgarishi bilan bizning istagimizdan qat'i nazar adabiyotlar ham o'zgarib boradi, ma'lum davrda muayyan ma'noni tashigan g'oyalalar, fikrlar boshqa davrlarga kelib o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Biroq mu-kammal badiyl shakllarda mushakkal bo'lgan adabiyotgina o'z mav-qeini saqlashi va kelajak avlodlarga asqotishi mumkin.

### **5-mavzu. KONFUSIY TA'LIMOTI**

Konfusiy ta'lomit. Chjou sulolasini davrida yashagan Konfusiy (m.a. 515-479) yashagan davrda hali Xitoy davlat sifatida markazlashmagan, Elladaga o'xshab, ko'pchilik mustaqil shahar-davlatlardan iborat edi. Keyinchalik Xan imperiyasi davridan boshlab, barcha Xitoy mutafakkirlari va shoirlari Chjou davrini orzu-havas qila boshladilar.

Chjou davrining ma'naviy va madaniy yuksalashiga buyuk xissa qo'shgan

mutafakkirlardan eng buyugi ham Konfusiyidir. "Shu-szin" ("Tarix kitob")da "Xalqqa g'amxo'rlik qilish davlat rahbarlarining muqaddas burchi", "Xalq muqaddasdir", degan g'oyaga juda katta e'tibor berilgan. Bu g'oya ven-ma'naviyatning asosini tashkil etadi.

#### **6-mavzu. QADIMGI HINDISTONDA ADABIYOTSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI**

Qadimgi hind falsafasi haqidagi Beruniy qarashlari. Qadimgi hindlar diniy, falsafiy, badiiy, estetik tafakkurga doir qarashlarini eng mufassal va mukammal o'rganib, chuqur yoritgan olim Muhammad ibn Ahmad Abu Rayhon Beruniyidir. "Allomayi Hindiston" kitobi ilk hind madaniyatini o'rganishda tengi yo'q durdona, bebaaho xazinadir. Bu fikr Berlin Royal universiteti professori Eduard Zaxaugtaalluqlidir. E.Zaxau yozadiki, "Hindshunoslikda Beruniya teng keladigan biror olim na undan oldin va na undan keyin bo'lganligini bilmaymiz" Yirik arabshunos V.R.Rozen allomaning "Hindiston" asarini qadimgi va o'rta asrlar G'arb va Sharq adabiyotida misli ko'rilmagan yodgorlik deb baholaydi. Fan tarixchisi Jorj Sarton esa XI asrning 1-yarmini "Beruniy davri" deb ataydi.

Allomayi Hindistonl kitobi ilk hind madaniyatini o'rganishda tengi yo'q durdona, bebaaho xazinadir. Bu fikr Berlin Royal universiteti professori Eduard Zaxaugtaalluqlidir. E.Zaxau yozadiki, —Hindshunoslikda Beruniya teng keladigan biror olim na undan oldin va na undan keyin bo'lganligini bilmaymiz. Yirik arabshunos V.R.Rozen allomaning —Hindistonl asarini qadimgi va o'rta asrlar G'arb va Sharq adabiyotida misli ko'rilmagan yodgorlik deb baholaydi. Fan tarixchisi Jorj Sarton esa XI asrning 1-yarmini —Beruniy davri deb ataydi. Uning fikricha, —Beruniy zamonasining ulug' olimi bo'lib qolmay, balki hamma zamonalarning ham eng ulug' siyimosidir

#### **7-mavzu. MAXOBHOROT VA RAMAYANA TARKIBIDA ADABIYOTSHUNOSLIK.**

Ramayana eposi til xususiyatlariiga ko'ra Mahobxorat yozilgan davrdan keyinroq vujudga kelgan bo'lsa-da, asar voqelari – Ram, Krishnaning qahramonlklari va uning ma'bud deb tan olinishi ancha qadimroq vaqtarda yuz bergen. Ramning otasi Dasharathi Ayyodh'ya podshohi bo'lgan davrda, hindshunos olimlar fikricha, Dekan yarimoroli qabilalari shimoldan, Hind daryosi sohillaridan janubga, Gang va Jamna daryolari vodiysiga ko'chib kelganlar

#### **8-mavzu. ANTIK (YUNON, RIM) ADABIYOTSHUNOSLIK**

Yunonistonda adabiyotshunoslik: Suqrotgacha bo'lgan davrda estetik qarashlar. Gomer ijodi va uning davridagi adabiy-estetik qarashlar. Suqrot, uning davri va adabiy-estetik qarashlari. Aflatunning adabiy-estetik qarashlari. Arastu hakim estetikasi: "Poetika", "Ritorika" asarlari. Qadimgi Rimda adabiyotshunoslik: Vergiliyning adabiy-estetik qarashlari. I-IV asrlarda adabiy-estetik

qarashlar. Plotin va yangiaflotunchilik estetikasi. Psevdo-LONGIN va uning "Yuksaklik haqida" asari. Yunonistonda adabiyotshunoslik

### **9-mavzu. MARKAZIY OSIYO VA ERONDA ADABIY-NAZARIY QARASHLAR**

Markaziy Osiyoda adabiy-estetik tafakkur chashmalari. Til tafakkuring reallashuv shakli. Sak (skif)larning adabiy qarashları. Ilk afsona va miflardagi adabiy-estetik qarashlar. "Avesto"da ezgu so'z poetikasi. O'rxun-Enasoy obidalari. Qadimgi Eronda adabiyotshunoslik. Markaziy Osiyoda adabiy-estetik tafakkur chashmalari. Turkiy xalqlar tarixi qanchalar qadim, turkiy dunyo hududi naqadar bepoyon, turk tili boy, zangin bo'lgani kabi turk dunyo-sining adabiyoti ham shunchalar yuksakdir. Bu yuksaklik belgila-rini biz yolg'iz madaniy omillar doirasida olib qarasak, bu muhtasham tarixga va cheksiz hududga, go'zal adabiyotga nisbatan tor ko'ngillilik qilgan bo'lamiz.

Qadimgi Sharq xalqlari yozma adabiyot paydo bo'lishdan avval mifologik tasavvurga va hayot haqiqatlarini bildiruvchi hik-matlarga boy xalq poetik ijodiga katta e'tibor bilan qaraganlar. O'sha zamondagi adabiy-estetik qarashlar ham shu boy madaniy meros asosida vujudga kelgan. Eron-Yunon, Eron-Turon, Eron-Vizantiya xalqaro munosabatlarida (urush-qirg'inqlardan boshqa vaqtarda) savdo-sotiq, madaniy aloqalar intensiv, samarali rivoj topgan. Qadimiylar hind hikmatnomasi "Kalila va Dimna" Eron podshohlarini qiziqtirib qolgani, Xusrav Anushirvon bu hikmatlar kitobining shon-shuhratini eshitib, uning yozilish tarixini hakimlar yetakchisi, donishmand Barzuyadan so'ragani, donishmand Eron shohiga hind hikmatnomasining yozilish tarixini aytib bergani, bu asarning pahlaviy tiliga tarjimasi mu=qaddimasida bayon etilgan.

### **10-mavzu. O'RTA ASRLAR SHARQDA ADABIYOTSHUNOSLIK.**

Islomga qadar arab adabiyotshunosligi. Arab adabiyoti tasnifi Qadimgi arab qasidasi, qasidada mazmun va kompozisiya. Ilmi aruz, ilmi qofiya va badoye'. Arab mamlakatlarida adabiyotshunoslik Arablar-somiyalar. Somiyarning asli Markaziy Afrikadan degan gipoteza mavjud. Bu taxmincha undan dalillar ko'p, albatta. Ular orasida tilga doirlari ham bor. Arablar tilida faqatgina «sher» tushunchasini ifodalash uchun 60 dan ortiq so'z mavjud. Hamma gap shundaki, arablar hozir egallab turgan xududda bitta ham arslon yashamaydi, ularning izi ham biror go'shadan topil-magan.

Islom renesansi. Adab ilmlari tasnifi. Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslilik ilmining shakllanishi Tazkirachilik taraqqiyotidan.

Islom dini ilk O'rtta asrda barcha musulmon mamlakatlari singari O'rtta Osiy xalqlari madaniyati, ma'naviyatining eng asosiy va nihoyatda muhim bo'lgan qismigagina emas, xislatiga ham aylanganligini yuqorida qayd qilib o'tdik. Islomning asosiy muqaddas manbai – Qur'on oyatlari va suralaridir, ularda asosiy diniy qonun-qoidalari, aqidalar bayon etilgan. Undan so'ng asosiy manbai Hadis – Muhammad

payg'am-barning aytgan so'zлari, uning hayotiy faoliyati, ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlar to'plamidir.

Tasavvuf tarixida milodiy VIII asrlarga kelib, Saodat asri ni qo'msash, payg'ambarlik sifatlarini targ'ib qilish, bora-bora zuhd va taqvonи kuchaytirish lozim ko'rildi. Hali "sufiy" so'zi urf bo'lmay turib, zohid va obidlarda dastlabki sufiylik bel-gilari zohir bo'ldi. Obid ibodat qilishga, taqvoga berilgan bo'lsa, zohid dunyo lazzatlaridan o'zini parhez qilishi bilan tasavvuf ahliga yaqin turadi. Ulardagi farq halol va haromga munosabatda ko'rindi. Obid fikricha, Qur'onda halollangan narsalarga halol, zohid fikriga ko'ra esa, Qur'oni karimda tilga olingen narsalar bilan birga Payg'ambarimiz o'z hayotlari davrida halol deb bilgan narsalar ham haloldir. Keyinroq buning qatoriga mehnat tufayli yaratilgan va erishilgan narsalar halollik bel-gisi sifatida qo'shilgan.

### **11-mavzu. MARKAZIY OSIYODA ADABIYOTSHUNOSLIK ILMI**

O'rtta asr madaniyati shu darajada yuksaklikka ko'tarilganki, dunyoviy ilmlar, turli aniq fanlarning yutuqlari, natijalari uning mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan, turli sohalarda ijod etilib, katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. O'rtta Osiyoda dinshunoslikning o'ta rivoj topgan asri IX asr bo'lsa, XII asr ilm-fan taraqqiyotining cho'qqisi bo'ldi. O'sha davrdagi ilm-ning hajmi, miqyosi, kengligi ayrim mualliflar asarida uchrovchi ilmlar tasnifida yaqqol namoyon bo'ldi. O'z davrining qator qomusiy aqllari – Forobiy, Ibn Sino kabilar bu masalaga katta e'tibor berdilar, ayrim mualliflar esa unga maxsus asarlar bag'ishladilar. X asrda Somoniylar davrida yashab ijod etgan Abu Abdullah al-Xorazmiy bu masalaga bag'ishlangan katta maxsus asar "Mafotih al-ulum"da ilmlar tasnifini batafsil yoritdi.

Abu Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Zamahshariy 467/1075 yilda Xorazmnинг Zamahshar qishlog'ida tavallud topgan. Zamahshariy Makkada yashagan paytda iskandariyalik bir shogirdi, —Al-iqd assamiyn fi tarix al-balad al-amiyn nomli tarixiy asarning muallifi Shahobiddin Ahmad ibn Ali al-Husayniy al-Molikiya yo'llagan maktubida o'zi haqida —Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy az-Zamahshariyman – Xorazmnинг qishlog'iga mansubman, Zamahshar tug'ilgan yurtimdir, deb yozgan.

Abu Nasr Forobiy ta'limoti. Markaziy Osiyolik buyuk alloma, faylasuf va adib Abu Nasr Forobiy (873–950) O'tror qishlog'ida tug'ilgan, Forobda o'qigan, Shoshda bo'lgan, Buxoro va Samarqandda tahsil olgan. Arab mamlakatlarda yashagan, Bag'dodda olimlar bilan uchrashgan, Damashqda va Halabda amir Sayfuddavla homiyligida ijod qilgan. Forobiy o'z davridagi mayjud ilm sohalariiga oid 160 dan ortiq ilmiy risola yaratgan. "Ixso al-ulum va-ta'rif" ("Ilmlar xosiyati va ta'riflari") risolasida o'ttiz-dan ortiq fan sohasining tasnifi berilgan. Tadqiqotchilar Forobiy shug'ullangan fan tizimlari sifatida falsafaning umurniy masalalari, materiyani o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar, ijtimoiyat, siyosat hamda filologiya (ilmi adab) kabi yo'naliishlarini aniqla-ganlar<sup>194</sup>. Forobiyning filologik tadqiqotlari —Kalamu-sh-

she'r va-l-qavofil (—She'r va qofiyalar haqida so'zli), —Kitobu-l-xitobal (—Ritorika haqida kitobl), —Kitobu-l-lug'atl (—Lug'atlar haqida kitobl), —Kitobun fi-s-sano'atul-kitobil ("Xattotlik haqida ki-tob"), —Tahsilu-s-saodatl, —Ta'lirqotl va boshqalardir.

## **12-mavzu. ALISHER NAVOIYNING ADABIYOTSHUNOSLIK MEROSI.**

Alisher Navoiyning adabiyotshunoslik merosi. Buyuk shoir va mutafakkir, olim va mutasavvif Alisher Navoiyning ilmiy merosini filologik, falsafiy-tasavvufiy, axloq va tarixga oid asarlar tashkil qiladi. Ulug' adib o'zigacha mavjud barcha ilohiy falsafiy-adabiy ilmlarni izchil o'rganib, ularni o'z asarlarida mukammal bir suratda tartiblay olgan ediki, zero Navoiy so'zlarini bag'ridagi hikmatni, dardu hasrat va san'atni anglash hamda o'sha buyuk ruhiy dunyo ichiga kirish uchun dastlab filologik asarlari va badiiy so'z haqidagi qarashlarini o'rganishimiz kerak bo'ladi. Filologik asarlari tilshunoslik va a dabiyotshunoslik yo'naliishida bo'lib, tilshunoslikka oid asarlari orqali ilk bor tipolo-gik lingvistikaga asos solingan.

## **13-mavzu. BOBURSHOH VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI.**

Boburshoh va adabiyotshunoslik masalalari. Temuriylar sultanatining ulug' davomchisi, Sharqdagi markazlashgan davlat asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)ning adabiyotshunoslik merosi alohida ilmiy risolalar, adabiy-tarixiy manbalar tarkibidagi qarashlar va tasavvuf adabiyotiga oid asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. Ular orasida —Aruz risolasil (1522) alohida ilmiy salohiyat kasb etadi. Bobur asarini yurtimizda ilk bor nashr ettirgan Saidbek Hasanov uning aruzshunoslikdagi o'r-nini belgilab, «klassik poeziyamizda qo'llanilib kelingan 289 vazn va ularning shakllarini ta'rif qilib, umumaruz ilmini 248 yangi, o'zi ixtiro qilgan vazn bilan asoslashga ahamiyat bergen va «lafz vazni» yuzasidan ikki toifa o'rtasidagi bahsni kuzatib, «alfoz boyitib, umumaruz ilmiga benihoya katta hissa qo'shgan»ini e'tirof etadi.

## **14-mavzu. YAPONIYADA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR**

Uzoq Sharqdagi yirik davlatlardan biri Yaponiya mamlakat-dagi katta, kichik, o'rtacha mingga yaqin orollarda joylashgan. Bu orollar (Hokkaydo, Konsyu, Kyusyu va boshqalar) Tinch okeani, Yapon dengizi, Oxota dengizi, Sharqiylar dengizi oraliqlarida joy-lashgan bo'lib, ulaming ko'pchiligi qishu yozin yam-yashil archa-lar, mevazor va o'monlardan iborat. Subtropik iqlimi Janubiy Hindiston va Syeylonni eslatadi. E. av. VI asrda Shri-Lanka, Syeylonda hinduviylik, krishnaviylik e'tiqodiga raqib sifatida vujudga kelgan buddaviylik ta'limoti butun Hindistonga, Kushonlar davlatida (mil. av. II asrda), Parsiyada, Sug'diyonada keng tarqalib, Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoya va Yaponiyaga ham kirib borgan. Deyarli bir vaqtida, e. av.

VI asrda vujudga kelgan konfisiylik va buddaviylik diniy e'tiqodlari o'zaro raqobatda bo'lmay (bular dao va sintoizm (ajdodlar ruhiga sig'inish) ta'-limoti bilan raqobat qiladilar), uzoq asrlar davomida barobar taraqqiy etishi jahon ulamolarini hayron qoldiradi.

### **15-mavzu. YEVROPADA O'RSTA ASRLAR VA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTSHUNOSLIGI. XVII-XVIII ASRLAR G'ARB ADABIYOTSHUNOSLIGI**

Ilk o'rta asrlarda antik adabiyotshunoslik davomi. Vizantiyada adabiyestetik qarashlar. San'atda "mubaddas yolg'on" nazariysi. F.Akvinskiy. Yevropa Uyg'onish davri adabiyotshunosligi manbalari. Italiany uyg'onishi va Dantening "Xalq nutqi" traktati. Leonardo da Vinci san'at asarining jonliligi xususida. Ingliz adabiyotshunosligi: Shekspir va ishonch nazariysi. Fransuz adabiyotshunosligi. Petrarka va Bokachcho. Yevropa klassisizmining shakllanishi. N.Bualo va uning uch birlik qonuni. Ingliz adabiyotshunosligi maktablari. Yum, Berkli. Fransuz ma'rifatchiligi. J.J.Russo, D.Didro. Germaniyada ma'rifatchilik. Gyotening adabiy qarashlari. Lessing she'riyat va san'atning plastik turlari haqida.

#### **III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Farobiyning va Ibn Sinoning adabiy-nazariy qarashlari
2. Beruniyning adabiy-nazariy qarashlari
3. Qadimgi Sharq adabiyotshunosligi manbalari
4. Yunonistonda adabiy - estetik tafakkur taraqqiyoti
5. Fununul balog'ada janrlar masalasining yoritilishi.
6. Shahid Balxiy, Ro'dakiy va Yusuf Xos Hojib she'r va shoirlik haqida.
7. "Chahor maqola" va nazariy poetika masalalari.
8. "Hibatul-haqoyiq" nazariy masalalar talqini
9. "Mahzan-ul-asror"da nazariy masalalar talqini.
10. Alisher Navoiy zamondoshlarining poetika taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
11. "Kitob-ul-mo'jam" (Shamsiddin Qays Roziy) mundarijasi.
12. Mahmud Qoshg'ariy – mohir adabiyotshunos.
13. Islom estetikasi. Imi adab va uning takibi
14. Qadimgi turkiy yodgorliklarning formal-poetik xususiyatlarini o'rganish.
15. Buddaviylik oqimidagi adabiyotlarning matniy xususiyatlarini o'rganish.
16. Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asaridagi rivoyat, afsona va hikoyatlar tahlili
17. Beruniyning "Mineralogiya" asaridagi rivoyat, afsona va hikoyatlar tahlili.
18. Tarixiy obrazlar va ularning taraqqiyoti (Jome' ut-tavorix" va "To'rt ulus tarixi"dagi O'g'uz xoqon shaxsi va "O'g'uznomal" dostonining qiyosiy tahlili) ni

o'rganish.

19. Ilmi badi va uning taraqqiyoti.
20. O'rta Osiyoda X-XII asrlarda arab adabiyotshunosligi masalalari.
21. O'rta Osiyoda fors adabiyotshunosligi masalalari.
22. Adabiyotshunoslik taraqqiyotida akademik (mifalog, psixologik va formal v.b.) mifikalarning o'rni.
23. XX asr adabiyotshunosligidagi ilmiy tizim va nazariyalar.

**Izoh:** Amaliy mashg'ulotlari talabalarini adabiyotshunoslikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ilk adabiyotshunoslarga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Amaliy mashg'ulotlarida talabalar mumtoz tarixiy poetikaning ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

"Adabiyotshunoslik tarixi" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlami o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg'ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali quollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzulami chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlami bajarish tavsiya etiladi;
- amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish.

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:**

1. Adabiyot, adabiyotshunoslik atamalarining ma'nolari, qo'llanilishi.
2. Umar Roduyonining "Tarjumonul-balogo'a" asarini o'qish (forschadan H.Boltaboyev va D.Yusupova tarjimasi).
3. G'arb va Sharq adabiyotini davrlashtirish masalalari
4. Shayx Ahmad Taroziyining "Fununul-balogo'a" asarini o'qish.
5. N.Bualo "Poeziya san'ati" asarini o'qib tahlil qilish
6. Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobidan islomdan

- oldingi diniy oqimlarga oid qismini o'rganish va konseptlashtirish
7. Gegelning "Estetika" asarini o'qib o'rganish
  8. Cho'Iponning "Adabiyot nadur?" maqolalar to'plamini o'qib o'rganish
  9. I.V.Steblevanining "Razvitiye tyurkskix poeticheskix form v X1 veke" (M.: 1971) kitobini o'rganish
  10. I.V.Steblevanining "Ritm i smisl v klassicheskoy tyurkoyazichnoy poezii" (M.:1993) kitobini o'rganish va konseptlashtirish.
  11. Devonu lug'atit-turk" bo'yicha yaratilgan tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish.
  12. Mumtoz adabiyot bo'yicha himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari avtoreferatlari bilan tanishish va ularga taqriz yozish.
  13. Adabiyotshunoslik tarixiga oid dissertatsiyalar avtoreferatlariga taqriz yozish.
  14. Antik adabiyotshunoslik manbalari „Poetika”, „Ritorika”
  15. Islomiyat davri adabiyotshunosligi. Farobi, Beruniy, Nizomiy, Aruziy Samarqandiy asarlari.
  16. Dante. Leonardo da Vinci, Bokachcho
  17. Alisher Navoiy va Bobur asarlari adabiyotshunoslilik manbalari sifatida
  18. Klassitsizm va m'a'rifatchilik adabiyotshunosligi. Bualo, Didro, Lessing.
  19. Markaziy Osiyoda tazkirachilik taraqqiyoti. Avfiy Buxoriy, Nisoriy, Tabibiy tazkiralari.
  20. Yevropa mumtoz estetikasi taraqqiyotida adabiyotshunoslilikning o'mi. Gegel "Estetika"si
  21. V.G. Belinskij asarlari.
  22. Adabiyotshunoslik fan asrida.
  23. Adabiyotshunoslikda falsafiy oqimlarning roli.
  24. Adabiyotshunoslik janrlari.
  25. Adabiyotshunoslik terminologiyasi identifikatsiyasi.
  26. Qadimgi Sharq adabiyotshunosligi manbalari.
  27. Shumer va Bobilda adabiy - nazariy qarashlar .
  28. Yunonistonda adabiy - estetik tafakkur taraqqiyoti .
  29. Antik davri adabiyotshunosligi manbalari. Arastu va uning "Poetika"si.
  30. Islom estetikasi. Imi adab va uning takibi.
- Izoh:** Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda mavzularni tanlab belgilash tavsiya etiladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.	<b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b> <b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- badiy matn mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz janrlarni tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish;</li> <li>- mavjud matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etishi, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko'nikmasini shakllantirish;</li> <li>- o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalarini adabiyotshunoslik tarixi masalalari bilan aloqadorlikda o'rganishga kirishish;</li> <li>- o'zbek mumtoz adabiyotining namunalarini Sharq va Jahan adabiyoti kontekstida qarash;</li> <li>- egallangan bilim va malakanı xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish <i>malakasini egallashi lozim</i>.</li> </ul>
4.	<b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- seminarlar (mantiqly fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihamalar;</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihamalar.</li> </ul>
5.	<b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	<b>Asosiy adabiyotlar</b> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XV асрлар – Т., 1993. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. Болтабоев Ҳ., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I-жилд. Т.: Mumtoz so'z. 2015. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. <b>Qo'shimcha adabiyotlar</b> Ш. Мирзиёев. Эркин ва фарони демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиш. Т.: Ўзбекистон, 2016. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал). III. Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель). Стеблева И.В. Ритм и смысл в тюркоязычной классической поэзии. Москва, “Восточная литература”, 1993.

	Болтабоев X. Адабиётшунослик тарихи. Магистратура таълими учун дарслык. – Т.: Mumtoz so‘z, 2016.
	Буало Н. Шеърий санъат. – Т.: Faafur Fu'lom nomidagi Adabiёт va sanъat nashriёti, 1979.
	Гильберт К., Кун Х. История эстетики. Перевод с английского. М.: Изд. иностранной литературы, 1960.
	Иглтон Т. Теория литературы. М., 2010.
	История Всемирной литературы. В 9-ти томах. М.: Наука, 1983-1998.
	Литературные манифесты западноевропейских классицистов. Собр. текстов. – М.: Изд. МГУ, 1980.
	Литературные манифесты западноевропейских романтиков. – М.: Изд. МГУ, 1980.

Fan dasturi Termiz davlat universiteti O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil “ <u>30</u> 08” dagi <u>1</u> -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
<b>Fan modul uchun ma’sul:</b>
G.Ximmatova – Termiz davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasи dotsenti, f.f.f.n (PhD)
<b>Taqrizchilar:</b>
M.Rajapova – Buxoro davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari doktori,
N.Yuldashev – Termiz davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasи dotseni, filologiya fanlari nomzodi